

Yo`ldasheva Maftuna Jura qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Muxammedova Muattar Dilshod qizi

Z.M. Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti talabasi

Qurbonova Navro`za Abdullajon qizi

Z.M. Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada psixologiyada hissiyot muammosining nazariy tadqiqi haqida qarashlar va ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so`zlar: *hissiyot, tarbiya, shaxs, aksiologik yondashuv, emotsiya, xotira, idrok, ijtimoiylashuv, stress, kognitiv, Z.Freyd, "hissiy portlash", refleks.*

Psixologiyada hissiyot deb shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlardan kelib chiqadigan kechinmalariga aytiladi. Shaxs biologik mavjudot bo'lishi bilan birga jamiyat a'zosi hisoblanadi. U yakka inson sifatida tevarakatdagi narsa va hodisalarga doimiy hissiy munosabatini xolisona aks ettiradi. Kishining munosabatlari uning miyasida his-tuyg'ular, emosional holatlar, yuksak ichki kechinmalar tarzida aks etishi hissiyotni yuzaga keltiradi. Kundalik turmushda va ilmiy manbalarda hissiyot tushunchasi har xil ma'nolarda qo'llanadi. Ba'zan hissiyot tushunchasi o'rniga sezgilar, anglanmagan mayllar, xohishlar, tilaklar, talablar, maqsadlar atamalaridan foydalaniladi. Psixologik manbalarda esa, shaxsning ehtiyojini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi narsalarga, kishilarga nisbatan o'z munosabatini miyasida aks ettirish ma'nosida qo'llanadi. Shuningdek, hissiyot bilan emosiya bir xil ma'noda ishlatilish holatlari ham uchrab turadi. Kishi tana a'zolarida ranglarning o'zgarishi, lablarning titrashi, kulgi, yig'i, g'amginlik, ikkilanish kabilar emosiya ifodasi hisoblanib, vatanparvarlik, javobgarlik, mas'uliyat, vijdon, sevgi kabi yuksak hislatlarni emosiya tarkibiga to'g'ridan to'g'ri kiritish to'g'ri hisoblanmaydi. Shaxsning mazkur hissiy kechinmalari o'zining mohiyati, kuch-quvvati, davomiyligi, ta'sirchanligi, yo'nalganligi bilan bir-biridan keskin farq qilib, ularning muhim farqi shundaki, birinchisi: hissiyot ijtimoiy, ikkinchisi emosiya: xususiy ahamiyat kasb etadi. Kishining faoliyati, xulq-atvori, muomalasi hamda jamiyat uchun ahamiyatli hisoblangan narsa va hodisalarni aks ettiruvchi munosabati hissiyotda umumlashadi. Emosiya faqat insonlargagina emas balki, mavjudotlarga ham taaluqli ruhiy holatdir. Hissiyot ijtimoiy muhitdagi kishilar tomonidan o'zlashtirilgan g'oyalar, me'yorlar, qonun qoidalar, qadriyatlarni aks ettiruvchi anglanilgan histuyg'ular, murakkab kechinmalarning vujudga kelishi jarayoni hisoblanadi. Kishi hissiyotda yuksak his-tuyg'ular ongli harakatlarni bajarishning mazmuni bilan uyg'unlashgan shaxs holatining murakkab tarkibida sifatida ko'zga tashlanadi. Masalan, mehnatdan lazzatlanish hislari, axloqiy, aqliy, nafosat tuyg'ulari hissiyotning o'zagidir. Hayvonlar esa bunday imkoniyatlarga ega emas. Hissiyotning fiziologik asosi bosh miya katta yarim sharlari po'stida va po'stloq osti qismida

yuzaga keladigan nerv jarayonlaridan iborat bo'ladir. His-tuyg'ularni boshdan kechirishning turli shakllari- emosiya, affekt, kayfiyat, kuchli xayajonlanish (stress), extiros ko'rinishlariga ega bo'ladir. His-tuyg'ular shaxsning emosional soxasini tashkil etadi. Kishida his-tuyg'ular uning extiyohlari qondirilishi jarayoni qanday kechayotganligi belgisi sifatida namoyon buladi¹⁴. Barcha psixik jarayonlar kabi emosional xolatlar, his-tuyg'ularning kechishi xam miya faoliyatining natijasi bo'lib hisoblanadi. Emosiyaning paydo bo'lishi tashqi olamda ro'y beradigan o'zgarishlardan boshlanadi. Bu o'zgarishlar kishi hayoti va faoliyatining jonlanishiga yoki pasayishiga, bir xil extiyohlarning paydo bo'lishiga yoki yo'qolishiga, kishi organizmi ichida yuz beradigan jarayonlardagi o'zgarishlarga olib boradi. His-tuyg'ular kechishiga oid fiziologik jarayonlar ham murakkab shartsiz va shartli reflekslar bilan bog'likdir. «Hissiyot», «emosiya» va «his-tuyg'u» degan so'zlar ko'pincha sinonimlar sifatida qo'llaniladi. Torroq ma'noda olganda, bu qandaydir biroz doimiyrok histuyg'ularning bevosita va vaktincha boshdan kechirilishdan iboratdir. «Emosiya» suzi ruxiy xayajonlanish, ruxiy xarakterlanish degan ma'noni beradi¹⁵. Emosiyalar stenik va astenik turlarga bo'linadi. Stenik hislar kishining g'ayratlantirsa, astenik hislar esa uning faoliyatini susaytirib yuboradi.

Kishini tez chulg'ab oladigan va shiddat bilan o'tib ketadigan his-tuyg'u affekt "hissiy portlash" deb aytiladi. Bu paytda kishi ong bilan ishlay olmaydi, uzini boshqara olmaydi, nazorat keskin susayib ketadi, iroda o'ziga bo'ysunmaydi. Kayfiyatlar uncha kuchli bo'lmagan, lekin uzoq vaqt davom etadigan barqaror hislar bo'lib, shodu-xurramlik yoki kayg'uli, tetiklik yoki lanjlik, xayajonli yoki mayuslik, jiddiy yoki yengiltaklik, jizzakilik yoki muloyimlik kabilar tarzida kechadi Stress – kuchli hissiy zo'riqishdan iborat jarayon. Hissiy zo'riqish xavfxatar tug'ilgan, kishi xafa bo'lgan, uyalgan, taxlika ostida qolgan vaziyatlarda ro'y beradi Ehtiroslar deb kishi xatti-xarakatlari yo'nalishini belgilaydigan, barqaror, chuqur va kuchli hislarga aytiladi. Masalan, rassomlikka, musiqaga extiros, bedana urishtirish kabilarga extiros. 1872 yilda Ch.Darvin tomonidan chop etilgan «Inson va hayvonlarda emosiyalarning ifodalanishi» nomli kitobda evolyutsion rivojlanish va o'zgarish nafaqat biologik, balki psixik, xulq-atvor darajada xam sodir bo'ladi, biologik tabiat va emosiyalarning foydasi organizmni atrof muxitga moslashishiga yordam beruvchi muxim moslanuvchi mexanizm sifatida tushuntirilgan emosiyalarning evolyutsion nazariyasi paydo bo'ldi deb ta'kidlagan. Darvinga ko'ra, emotsional ifodali xarakatlanishlar - bu maqsadga muvofiqli instinktiv xarakatlar rudimenti, - bu uzi va boshqa turlarning zoti uchun biologik ahamiyatga ega signaldir¹⁶. XIX asr oxirida amerikalik psixolog U.Djeyms va unga bog'lik bo'lmagan daniyalik psixolog G.N.Lange periferik emotsiyalar nazariyasini ilgari surishadi,

¹⁴ Ф.Н.Гоноболин «Психология» Т. 1976 й.

¹⁵ А.В.Петровский таърири остида «Умумий психология» Т. 1992 й.

¹⁶ Психология эмоций: Тексты / Под. ред. В.К. Вилюнаса, Ю.Б. Гиппенрейтер. - М: Изд -во Моск. ун-та, 1984.

unga ko`ra emotsiyalarning yuzaga kelishi muayyan organizm fiziologik ta`sirlanishlari bilan shartlangan; shu o`zgarishlar bilan bog`lik xislar emosional ta`sirlanishlarning o`zidir. 1884 yilda «Emosiyalarning o`zi nima» nomli makolasida Djeyms shunday deb yozadi: «Asosiy fikrlarim shundan iboratki, tana

o`zgarishlari bevosita xayajonlantiruvchi dalilning idrok kilinishi ortidan keladi va bu o`zgarishlarni boshimizdan kechirishimiz, sodir bo`lishiga ko`ra, emotsiyalar bo`lib hisoblanadi. Yig`laganimiz uchun xafamiz; zarba berayotganimiz uchun g`azabdamiz, titraganimiz uchun qo`rqamiz, aksincha emas. Agar idrok qilinish tana o`zgarishlari bilan kuzatilmaganida, u nixoyatda bilim orttirish uchun xizmat qilgan, ranglar, ranglar uyg`unligi va emotsional tondan maxrum bo`lar edi». Shaxs psixoanalitik nazariyasi asoschisi Z.Freyd birinchi bo`lib ongsiz moxiyati va rolga e`tibor berdi, biz - ratsional emas, balki kelib chiqishi ko`p xolda anglanmaydigan emotsional kuchlar bilan boshqariladigan mavjudotlarmiz deb ta`kidlagan. O`rinli va o`rinsiz emotsiyalarning namoyon bo`lishlarini kuzatib, Z.Freyd ongsizning ichida motivasiyalarni tushunishgacha yetib keldi. Emotsiyalar zo`rikish xolatidan kutilish va roxatlanish xolatini tushunish uchun vosita bo`lib xizmat qiladi. Z.Freydning yana bir ilmiy yutug`i ximoya psixologik mexanizmlarini ta`riflash va tasvirlashdan iborat, ularning yordamida inson negativ emosional kechinmalardan kutilishga urinadi. Shuningdek Z.Freyd psixotaxlil tizimiga davolash metodi sifatida katarsis atamasini kiritdi -«bushashish, zurikish, xatarni olib tashlash, tushkunlikka tushgan goya, kechinma, xissiyet, istak va xotiralarni onggacha yetkazish». Bixevioristlar insonni ta`sirlanuvchi, ta`sir ko`rsatuvchi, o`quvchi muayyan ta`sirlanishlar, xarakatlar, hulq-atvorga dasturlashgan mavjudot sifatida ko`rib chiqishgan. Stimul va madadni o`zgartirib, kerakli xulk-atvor va shu bilan emotsional ta`sirlanishlarni xam modellashtirish mumkin. Shuning uchun emotsional ko`rinishlar, ularning fikricha, klassik shartli reflekslarni ishlab chiqish natijasi bo`lib hisoblanadi. Kerakli xulq-atvorni shakllantirish bosh vositasi bo`lib ijobiy yo salbiy bo`lishi mumkin bo`lgan madad xisoblanadi. Inson xulq-atvoriga madad xususiyati, inson uchun qadri ta`sir qiladi, turli insonlar turli madadlarni qadrlaydi va afzal ko`radi: kimdir ko`proq maqtovlarni, boshqalar tomonidan xurmatni qadrlaydi, kimdir esa ko`prok pulni qadrlaydi va jazoga yanada ta`sirchan bo`ladi».¹⁷ Bixevioristlar xulq-atvorimiz qanchalik shaxsiy standartlarimizga mos kelishiga ko`ra ijobiy yoki salbiy emosiyalarni xis etamiz deb ta`kidlaydi. «O`z-o`zini baxolash ta`sirlari» real oqibatlariga ko`ra rag`batlantirish va jazolash mezonlarini egalladi va saqlaydi. Insonlar odatda, agar o`z yutuqlaridan faxrlansa, o`zi bilan qoniqadi, lekin qachondir o`zida nimanidir qoralasa, o`zidan qonikmaydi. Agar inson o`z standartlariga to`gri kelmaydigan xatti-xarakatlarni amalga oshirsa, jamoat yoki o`ziga tanbex berishdan va oqibatida negativ kechinmalardan chetlashib, o`zini oqlaydi. Bunda u o`z ongini shunday o`zgartiradiki, bu unga o`z

¹⁷ Небылицын В.Д. Темперамент. Психология индивидуальных различий. - Тексты под редакцией Гиппенрейтер Ю.Б., Романова М.Е. - изд-во МГУ, 1999.

mas'uliyatini kamaytirish yoki undan ko'chishga imkon beradi¹⁸. Kognitivistlar esa, insonni, avvalom bor, «fikrlovchi, tushunuvchi, taxlil qiluvchi» sifatida idrok qilishgan, sababi butun xayotiy axborotlarni kognitiv jarayonlar yordamida tushunish, baholashga to'g'ri keladi. Shuning uchun ko'pgina kognitiv nazariyalar emotsiyalarni, asosan, bilish jarayonlari bilan shartlangan ta'sirlanishlar sifatida ko'rib chiqadi. Kognitivistlarning fikriga ko'ra, aql nazorat va emosiyalarni o'rnini bosish omili bo'lib xizmat qilishi kerak. Patologik emotsional xolat xam mos bo'lmagan xulq-atvor «moslashmaydigan» kognitiv jarayonlar natijasidir. Gumanistik yo'nalish tarafdorlari insonning ichki olami. Uy-fikrlari, xissiyot va emosiyalari borliqning to'gridan-to'g'ri aksi emas, balki har biri obyektiv olamni idrok qiladi va o'zgartiradi. Insonlar ularning shaxsiy o'sishiga yordam bergan idrok qilingan kechinmalarni baholaydi va o'z mavqeini topishga tushkinlik qilgan kechinmalardan ko'chadi va salbiy baholaydi. Emotsiyalar nazariyasi rivojlanishiga quyidagi olimlarimiz o'z asarlari bilan katta xissa qo'shgan. N.Ya.Grotning ta'kidlashicha, organizm jarayonlarini boshqara olmaydigan xis qilishlardan farqli ravishda emotsiyalarning xis etilishlari organizm munosabatlariga xizmat qiladi. Ichqi va tashqi munosabatlarning garmoniyasi va disgarmoniyasi mamnun bo'lish va kayg'urish manbalariga aylanadi. Murakkab xissiyotlar o'zaro oddiy emotsiyalar va xis etishlar yoki g'oyalar bilan faxmlashlarning birikmasi orqali hosil qilinadi. Bunda N.Ya.Grot birlamchi bo'lib xissiyot va xayajonlanishlarga bilish sohasidan aniq tasavvurlar to'g'ri kelgan deb hisoblagan; ikkilamchi bo'lib - aniq tushunchalar; yanada murakkab xissiyotlarga - mavhum tushunchalar¹⁹.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ф.Н.Гоноболин «Психология» Т. 1976 й.
2. А.В.Петровский таърири остида «Умумий психология» Т. 1992 й.
3. Психология эмоций: Тексты / Под. ред. В.К. Вилюнаса, Ю.Б. Гиппенрейтер. - М: Изд -во Моск. ун-та, 1984.
4. Небылицын В.Д. Темперамент. Психология индивидуальных различий. - Тексты под редакцией Гиппенрейтер Ю.Б., Романова М.Е. - изд-во МГУ, 1999.
5. Мясищев В.Н. Психология отношений. - М.: Инфа-М, 2001. 7 Ильин Е.П. Эмоции и чувства. - СПб.: Питер, 2006.
6. Грот Н.Я. Психология чувствований. - Тексты под ред. Вилюнас В.К., Гиппенрейтер Ю.Б. - М.: Гуманит. издат. центр Владос, 2003.

¹⁸ Мясищев В.Н. Психология отношений. - М.: Инфа-М, 2001. 7 Ильин Е.П. Эмоции и чувства. - СПб.: Питер, 2006.

¹⁹ Грот Н.Я. Психология чувствований. - Тексты под ред. Вилюнас В.К., Гиппенрейтер Ю.Б. - М.: Гуманит. издат. центр Владос, 2003.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING AXLOQIY MUNOSATLAR HAQIDAGI TA'LIMOTLARI

Yo`ldasheva Maftuna Jura qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Saydaliyeva Madina Saydislom qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Kaldibayeva Fariza Muhammad qizi


Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining axloqiy munosatlar haqidagi ta'limotlari haqida qarashlari va ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so`zlar: *Axloq, tarbiya, faylasuflar, mutafakkir, shaxs, aksiologik yondashuv, "Avesto", Budda, Konfutsiy, A.Avloniy.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar negizida yosh avlodni har tomonlama yetuk barkamol shaxs qilib kamolga yetkazish eng muhim vazifalardan biri sanaladi. O'sib kelayotgan avlodning ta'lim-tarbiyasi biz ichun ahamiyatga molik faoliyat hisoblanadi. Bu ana'na bir necha asrlardan beri o'z qadr-qimmatiga ega bo'lib kelmoqda. O'tmish ajdodlarimizning ta'limotlariga nazar tashlasak, ularning ham qarashlarida ma'naviy yetuk, axloqiy fazilatlar yuqori shaxslarni tarbiyalash masalasi alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa, axloqiy munosabatlar va fazilatlarni shakllantirib rivojlantirishda aksiologik yondashuv asosida amalga oshirish alohida o'rin egallaydi. Qadriyatga asoslangan holda ta'lim-tarbiya berish har doim o'zining samarali naijalarini ko'rsata olgan. Avvalo, axloqiy munosabat tushunchasiga to'xtalib o'tsak:

Axloqiy munosabatlar – kishilar faoliyatini muayyan me'yoriy talablar doirasida muvofiqlashtiruvchi, ularni insonparvarlik, ezgulik, halollik, adolatlilikka asoslangan munosabatlari. Axloqiy munosabat asosida jamiyatda o'zaro muvofiq keladigan munosabatlar qaror topadi. Axloqiy munosabatlar quyidagi o'zining muayyan ko'rinishlariga ega (1-rasm):



1.1. 1-rasm. Axloqiy munosabatning ko'rinishlari.

■ **insonlarning bir-biri bilan munosabatlari** jumladan, ta'lim oluvchilarni oila va ta'lim muassasalarida shaxslararo munosabatlarning axloqiy me'yorlaridan xabardor qilish;